ISSN: 2181-3187

ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

ЯНВАРЬ - 2023 год

ЧАСТЬ - 8

Scanned with CamScanner

ISSN 2181-3187

RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYERLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI.

Nurbayeva Inobat To'lqinovna
Nizomiy nomli TDPU "Maktabgacha ta'lim pedagogika va psixologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini davlat o'quv dasturida yoritilish holati va uni bolalar ongiga yetkazib berishdagi mutaxassisning pedagogik mahoratni yanada boyitishda yordam beradi.

Аннотация: Данная статья поможет в дальнейшем обогащении педагогического мастерства специалиста в освещении понятий национальной ценности у дошкольников в государственной образовательной программе и доведении ее до сознания детей.

Abstract: This article will help in further enriching the pedagogical skills of a specialist in highlighting the concepts of national value among preschoolers in the state educational program and bringing it to the consciousness of children.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limiy faoliyatlarni tashkil etar ekanmiz bu jarayonida milliy qadriyatlar namunalaridan keng tarzda foydalanish zarurdir: ertak, maqollar, afsona, doston, masal, matallar, ya'ni xalq og'zaki ijodi orqali vatanga e'tiqodni tarbiyalashdagi ahamiyatini tahlil etarkanmiz, bu borada dastur va uning asosida nashr etilgan uslubiy qo'llanmalarda "Til va nutq" rivojlanish markazida maktabgacha yoshidagi bolalarini vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning muhim manba bo'la olishini hisobga olgan holda, milliy qadriyat ruhidagi maqollarga qanday o'rin berilgan-ligiga e'tiborni qaratdik. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlarning "Til va nutq" markazida milliy qadriyatga oid materiallar mavjud bo'lib, mavzuga doir matn va she'rlar bilan bir qatorda maqollar ham o'rin olgan. Masalan, maktabga tayyorlov guruhi rivojlanish markazida "O'zbekiston – mening Vatanim" mavzusi asosida quyidagi maqollar keltirilgan:

Vatani borning – baxti bor,
Mehnati borning taxti.

***

Vataning tinch – sen tinch.

***

Ona erning tuprog'i ona sutidek aziz.

***

Yoki "Oltmish gaz arqon" ertagidan sung shunday maqol keltirilgan:

Scanned with CamScanner

Yurt boshiga ish tushsa er yigit hozir.

Bu maqollarning faoliyatga kiritilishining asosiy maqsadi ham maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarini milliy qadriyatlar namunalari bilan tanishtirish, ular orqali o‘zbek xalqining donoligini ko‘rsatish, hayotlari davomida to‘plagan tajribalaridan ogoh etishdir. Eng asosiysi shu maqollarda ilgari surilgan milliy qadriyat g‘oyalariga amal qilishni nazarda tutadi. Ko‘pincha mashg‘ulotda berilgan maqollar yodlash uchun mavzuning yakunida beriladi, bunga sabab berilgan maqollar mavzuni to‘ldirish uchun xizmat qilishi bilan birga, mavzuda bayon etilgan fikrlarni xulosalash uchun ham ahamiyatlidir. Masalan, yuqoridagi “Oltmish gaz arqon” ertagidan keyin keltirilgan maqolning vazifasi ham ertak mazmunini to‘ldirish va xulosalash uchun ahamiyatli bo‘lishi bilan birga, vatanga e’tiqod, vatanni himoya qilish uchun er yigitlarning shay turishi lozimligi haqida bolalarini ogoh etishdan iboratdir.

“Rivojlanish markazlari”dagi faoliyatlarni tahlil qilishda davom etar ekanmiz milliy qadriyatlar namunalariga suratlar, kartochkalar va audio yozuvlar, ta’limiy o‘yinlarga keng o‘rin berilganligini ko‘ramiz.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni vatanga e’tiqod ruhida tarbiyalash manbalaridan yana biri bu o‘zbek xalk ertaklaridir. Yuqorida aytganimizdek xalq ertaklarini tiklash, ularni mashg‘ulotlarga kiritish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan va ular yanada takomillashtirilib borilmoqda. Hozirgi vaqtda maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar ruhiyati va tarbiyasiga mos juda ko‘plab, kichik xajmdagi ertaklar nashrdan chiqarilgan bo‘lib, ular bolalarning mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarida yoki kechki soatlarda bolaning xoxish, talablarini qondirishda o‘z samarasini beradi.

Biz yuqorida maqollar tahlilida aytib o‘tgan, “Oltmish gaz arqon” ertagida vatan himoyasi uchun har bir kishining mas’ulligi ta’kidlab o‘tilishi bilan birga, vatan himoyasidan qochgan inson Oddiy tadbirkor kampir tomonidan qoralanadi. oddiygina kampirning tadbirkorligi tufayli butun mamlakat dushmandan xalos bo‘ladi. Ertak qo‘yidagicha hikoya qilinadi: - “Qadim zamonda yurtga yov bosib kelibdi. Hammaning ishi ishda qolib, mamlakat aholisi vatan himoyasi uchun jang maydoni tomon yuguribdi. Bir kampir shaharning chekkarog‘ida yolg‘iz o‘g‘li bilan yashar ekan. Mamlakatni yov bosganidan xabar topgan kampir, shosha-pisha uyquda yotgan o‘g‘lini uyg‘otibdi. Sergak tortgan o‘g‘il, vatan himoyasi uchun shoshibdi. Kampir esa bisotidagi bittagina yostig‘ini olib so‘ka boshlabdi. Ichidan yungini chiqarib, undan arqon yasabdi. Arqoni oltmish gazcha bo‘lganida, devor orqasidan qo‘shnisi qarab:

- Hay qo‘shni, turing qochamiz. Yov yaqinlashib qoldi, -debdi.

Kampirning fig‘oni falakka chiqibdi.

-Yortdan, eldan ayrilib qochgandan ko‘ra, qora erga qochsak bo‘lmaydimi, qo‘shni! Nahotki uyalmay shu so‘zni aytdingiz! Yov yaqinlashgan bo‘lsa, yuring,

Scanned with CamScanner

ISSN 2181-3187

choralarini ko‘rish belgilab berildi. Respublikamizning barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ma’naviyat burchagi”, “Milliy qadriyat burchagi” tashkil etilib, ularda bolalarni milliy qadriyatga chaqiruvchi suratlar, kitoblar, eksponatlar, xalqimizga xos bo‘lgan kompozisiyalar bilan jihozlamoqdalar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim dasturida ko‘rsatib o‘tilgan vatanga oid mavzular, ularning mashg‘ulotlarda berilishi, vatanga e’tiqodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi manbalar xususida to‘xtalar ekanmiz, olib borilgan tahlillarimizdan shu narsa ayon bo‘lmoqdaki, dastur va uslubiy qo‘llanmalarda ko‘rsatilgan “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” qo‘llanmasida, O‘zbekiston bilan tanishtirish mavzulari o‘quv yili davomida berilgan bo‘lib bu “Mening jonajon O‘zbekistonim”, “Mening shahrim, mening mahallam”, “Men va mening oilam”, “Vatan hmoyachilari kuni”, “O‘zbekistonning buyuk siymolari” mavzulardan iborat. Mavzularda vatan, milliy qadriyat, vatanni sevmoq va boshqa tushunchalarning qisqacha maqsadi berilgan. Ammo pedagoglarning salohiyatini inobatga olgan holda ko‘rsak ushbu mavzular bola ongiga to‘laqonli etkazib berilmayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1 .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 369-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.:O‘zbekiston, 1998-47 b.

4. Eshchanova, G. (2022). Maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlar sotsalizatsiyasi. Science and innovation, 1(B8), 561-564.

5. Abdullajonova D. Milliy tarixiy xotira: mohiyat va talqin. // Jamiyat va boshqaruv.-2004- №4.-49-50 betlar.

6. Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiyat: (Vatan fidoiylari).-T.: Akademiya, 2000-630 b.

7. Akramova, D. (2022). Bo’lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta’lim tizimidagi faoliyati. Science and innovation, 1(B8), 322-326.

8. Akramova, D. (2022). Oliy ta’lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.

9. Nurbaeva, I. T. (2022, November). Models of pedagogical communication in the educational process. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (vol. 1, no. 3, pp. 88-95).

Scanned with CamScanner